

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN TO'QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI

"TASDIQLAYMAN"

Namangan to'qimachilik sanoati
instituti rektori


 Q.M. Xoliqov
2023 yil "30" okt

TEXNOLOGIK JIHOZLARGA XIZMAT KO'RSATISH
TEXNIKA VA TEXNOLOGIYASI

FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi	700000	– Muhandislik, ishlov berish va qurilish Sohalari
Ta'lif sohasi	720000	– Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari
Ta'lif yo'nalishi	60721400	– Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari (xizmat ko'rsatish texnikasi va texnologiyasi)

Namangan – 2023

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar					
TJXKTT20025	2023-2024 2024-2025	6,7	6-semestr: 6 7-semestr: 6					
Fan/modul turi	Ta'lim tili		Haftadagi dars soatlari					
Majburiy	<u>O'zbek</u>		6					
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)				
	Texnologik jihozlarga xizmat ko'rsatish texnika va texnologiyasi	180	180	360				
2.	I. Fanning mazmuni:							
O'quv fanning dolzarbliji va oliy kasbiy ta'limgagini o'rni								
Ushbu fan to'qimachilik, tikuvchilik, yengil va paxta tozalash sanoati texnologik mashinalari va jihozlarini ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish korxonalarida amalga oshiriladigan ta'mirlash ishlarida qo'llaniladigan jarayonlar, texnologik vositalar tasnifi ularning tuzilishi, fan tarixi va rivojining tendensiyasi, istiqboli va xududiy muammolarning ta'mirlash sohasida ishlatiladigan vositalarni istiqboliga ta'siri masalalarini, ularning kelib chiqish sabalari va kamaytirish usullari doirasida zaruriy tushuncha, bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha talabalarni zarur bo'lgan bilimlar bilan ta'minlashdir.								
"Texnologik jihozlarga xizmat ko'rsatish texnika va texnologiyasi" fani ixtisoslik fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, 3-4-kurslarda o'qitilishi maqsadga muvofiq. "Texnologik jihozlarga xizmat ko'rsatish texnika va texnologiyasi" fani ixtisoslik fanlar turkumiga kiradi, boshqa matematik va tabiiy (oliy matematika, fizika, nazariy mexanika, kimyo), umumkasbiy (mashina detallari, mashina va mexanizmlar nazariyasi, metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish asoslari, konstruksion materiallar texnologiyasi, tribotexnika asoslari va boshqalar), ixtisoslik (servisdagi jarayonlarini loyihalash, tarmoq mashinalari puxtaligi, va h.k.) fanlari bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi mavjud.								
II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi								
Fanning maqsadi - talabalarga to'qimachilik, yengil va paxta tozalash sanoati korxonalariga jihozlarga xizmat ko'rsatishda qo'llaniladigan texnika va texnologiyalarini o'rgatish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.								
Fanning vazifasi - ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, servis xizmatida sanoat yo'nalishiga qarab								

ishlatiladigan asbob-uskunalar va moslamalarga amaliy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yidagi talablar qo'yiladi. **Talaba:**

- servis xizmatini tashkil qilish usullari, servis xujjatlarini tuzilishi, jihozlarni tamirlashni rejalashtirish va tashkil qilish, texnologik jixozlarni ta'mirlashda va ularga texnik xizmat ko'rsatishda dasltabki holatlar to'g'risida *tasawurga ega bo'lishi*;

- hozirgi zamon diagnostikasi, asbob uskanalari, jihozlarga servis xizmati ko'rsatishda ularni ishdan chiqishini tahlili va tiklashni yangi texnologik usullarini, ularning turlari, qo'llash usullari, servis xizmati sifatini nazorat qilishni *bilishi va ulardan foydalana olishi*;

- servis jizmatida sanoat yo'nalishiga qarab ishlatiladigan asbob-uskunalar moslamalarni ishlatish, servis xizmati sifatini oshiruvchi asboblar, moslamalar, servis xizmatida yuk ko'taruvchi, tashuvchi moslamalar, konveyerlar, elevatorlar xizmatini qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;

III. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

1. Paxta tozalash korxonasi asosiy bo'limlarining ishlab chiqarish dasturini tuzish va hisoblash
2. Xom ashyoning sifatiga qarab paxta tozalash korxonasining tozalash rejasini tuzish
3. Servis xizmat ko'rsatishda quritish barabanlarini texnik xarakteristikalarini va ulardagagi nosozliklarini bartaraf etish usullari
4. Xizmat ko'rsatishda paxtani ifoslardan tozalagichlarning konstruksiyasini o'rganish va ulardagagi nosozliklarni bartaraf etish usullari
5. Chigitli paxtadan yirik ifosliliklarni tozalash uskunasida arrasimon barabandan paxtani ajratib oluvchi cho'tkali baraban asosiy ko'rsatkichlarini hisobi
6. Arrali silindr tishlaridan tolani havo yordamida ajratish uchun jinlar va linterlar qatoriga vintelyator tanlash
7. Paxtani jinlash texnologiyasini o'rganish va nosozliklarni bartaraf etish usullari.
8. Xizmat ko'rsatishda valikli jinlash texnologiyasini o'rganish va undagi nosozliklarni bartaraf etish usullari
9. Arrali jinlarni arrali tsilindr valini hisobi
10. Xizmat ko'rsatishda paxta tozasini tozalash texnologiyasini o'rganish va undagi nosozliklarni bartaraf etish usullari
11. Xizmat ko'rsatishda 5 lp va 6 lp linterlarning texnologiyasini o'rganish va

- undagi nosozliklarni bartaraf etish usullari
12. Tolali maxsulotlarni toylashda pressning ish unumdorligini hisoblash
 13. Arra tishlarini charxlash uskunasini nosozliklarini o'rganish
 14. Arraga yangi tish chiqarish uskunalarini o'rganish
 15. Arra tishlari silliqlash uskunalarini o'rganish
 16. Xizmat ko'rsatishda piltalash mashinasini asosiy mexanizmlarini ta'mirlash yo'llari
 17. Piltalash mashinalarida xizmat ko'rsatish usullari
 18. Tarash mashinasining ishchi organlarini tamirlash texnologiyasi.
 19. Tarash mashinasini qabul qiluvchi barabanini tishli garniturasini almashtirish jarayonini o'rganish
 20. Yigirish mashinalarini taranglovchi rolik va yurituvchi barabanlarini ishlash jarayonini o'rganish va ularga xizmat ko'rsatish
 21. Urchuq tasmasini o'lchash, kesish va birlashtirish jarayonlari. Urchuqlarni ta'mirlashni va moylashni tashkil qilish
 22. Rogulkalarni ta'mirlash jarayonini o'rganish
 23. Yigirish mashinalarini halqalarini tozalashni, jilvirlashni va tiklashni amalgamoshirish jarayonlari
 24. Yigiruv mashinalari urchug'larini yog'ini almashtirish moslamasini tuzilishi bilan amalda tanishish
 25. Tikuv mashinalari va jihozlarini ishlab chiqaruvchi firma va korxonalar
 26. Moki baxyaqatori xosil qiluvchi mashinalar texnologik jarayonlarini o'rganish
 27. Nuqson topish-o'lchash mashinalari
 28. Zamonaviy avtomat to'shash mashinalari
 29. Bichuv tsexining mashina va uskunalari
 30. Qo'lda boshqarilib to'shamani qirquvchi va kesib bo'laklarga bo'luvchi mashinalar
 31. Lentali statsionar to'shamalarni qirqish va kesib bo'laklarga bo'lish mashinalari
 32. Keng imkoniyatlidikuv mashinalarini igna mexanizmlari
 33. Tikuv mashinalarini ip tortgich mexanizmlarini konstruksiyasi
 34. Tikuv mashinalarini moki mexanizmlari
 35. Mashinalarni buyumni surish mexanizmlarini o'rganish
 36. Tikuv mashinalarining yordamchi mexanizmlari
 37. Bir ipli zanjirli bahyaqatorlar hosil qiluvchi mashinalar
 38. Ikki ipli zanjirli choc hosil qilib buyumlarni tikuvchi va qavuvchi mashinalar
 39. Siniq choc hosil qilib tikuvchi mashinalar
 40. Yo'rmalash va tikib yo'rmalash mashinalar

41. Yashirin bahyaqatorlar hosil qilib tikuvchi mashinalar
42. Puxtalash avtomat va yarim avtomatlari
43. Tugma tikish va qadash yarim avtomatlari
44. Izma ochish avtomatlari va yarim avtomatlari
45. Kashta tikish mashinalari va yarim avtomatlari
46. Yassi chok hosil qilib tikuvchi mashinalar va yarim avtomatlar
47. Tikuv-trikotaj kiyim detallariga ishlov berish avtomat va yarim avtomatlari
48. Tikuv buyumlariga issiqlik va namlik bilan ishlov beruvchi jihozlar

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim bo'yicha tavsiya etiladigan mavzular:

1. Qotirish birikmalari va ularni turlari.
2. Gayka va boltlarning tayanch yuzalari.
3. Birikmalarni silkishga qarshi mustaxkamligi.
4. Birikmalarda bolt va gaykalarga ajratilgan yuzalar.
5. Salnik sistemalari, birikmalar turlari.
6. Birikmalarni qotirish usullari.
7. Birikmalar siqilish kuchini nazorat qilish turlari.
8. Pressli birikmalar, moslamalar va kuzatish usullari.
9. Moylash usullari vamoylash materiallari
10. Mahsulotni texnologik jarayon tizimi bo'ylab transportirovka usullari va sistemalarga servis xizmati.
11. Bloklar, polistpaslar va barabanlar, monorelsli transport tizimlari.
12. Konveyrlar tanlash, loyihalash, pnevmatik transport vositalari.
13. Paxta tozalash mashinalarini texnika va texnologiyasining asosiy yo'naliishi.
14. To'qimachilik mashinalarini texnik xizmat ko'rsatish, tayyorlov, tarash, yigirish, o'rash mashinalari misolida servis masalalari.
15. Tarash mashinasining ishchi qismlarini ta'mirlash jarayoni.
16. Tarash mashinasini qabul qiluvchi barabanini tishli garniturasini almashtirish jarayoni.
17. Halqali yigirish mashinalarida ipni uzelish va sifatini nazorat qilish jarayoni.
18. Pnevmomexanik ip yigirish mashinalarida yigirilgan ipni nuqsonlarini tahlil qilish.
19. O'zbekiston to'qimachilik korxonalamning assortimentlari bilan tanishish.
20. Turli xil assortimentdagagi to'qimachilik iplarning ishlatilishi.
21. To'qimachilik korxonalarida pishitilgan iplarni ishlab chiqarish tajribalari.
22. Ishlatiladigan tikuv iplarining assortimentlari ishlab chiqarish

texnologiyasi.

23.Turli korxonalarda tayyorlangan tikuv iplarning afzallik va kamchiliklari.

24.Iplarni tugunsiz ulash texnologiyasining afzallik va kamchiliklari.

25.To‘qimachilik korxonalarida iplarning rang ko‘rsatkichlarini baholash usullari.

26.To‘qimachilik korxonalarining chiqindilarning qayta ishlash uskunalari, texnika va texnologiyasining afzallik hamda kamchiliklari.

27.Turli firmalaming chiqindilarni qayta ishlash uskunalari texnika texnologiyasining afzallik va kamchiliklari.

28.Yo‘g‘on iplarni ishlab chiqarishning afzallik va kamchiliklari.

29.Shakldor ipni sanoatdagи o‘rni va istiqbollari.

30.Teksturlangan iplarni sanoatdagи o‘rni va istiqbollari.

31.O‘zakli iplarni assortimenti, sanoatdagи o‘rni va istiqbollari.

32.Maxsus iplarni sanoatdagи o‘rni va qo‘llanilishi, istiqbollari assortimenti.

33.Jun tolasini yigirish texnologiyalarinin qiyosiy tahlili.

34.Past navli paxta tolassi va yigiruvbop tolali chiqindilar.

35.Tolalarni emulsiyalash va moylash uskunalari.

36.Ip mahsulotlarini xossalarni aniqlash va sifatini baholash

3.

V. Ta’lim natijalari/Kasbiy kompetensiyalari

Bakalavriant bilishi kerak:

- Talabalarga O‘zbekistonda to‘qimachilik sanoatini tutgan o‘rni, to‘quvchilik sohasida yaratilgan yangi texnika va texnologiyalarning asosiy yo‘nalishlari haqida malumot berish. Mashina va mexanizmlarni loyihalash jarayonida ularni puxtaligini ta‘minlash; mashinaning konstruktsiyasini texnologik jixatdan qulaylishi *xaqida tasavvurga ega bo‘lishi: (bilim)*

- tabiiy tolalarni yigirish, to‘qish shuningdek to‘qimachilik gazlamalari ishlab, trikotaj tolalari, noto‘qima mahsulotlari, hamda shu sohada ishlatiladigan mashina va mexanizmlarning tuzilishi, ishlari to‘g‘risidagi masalalar bayon etiladi; ularda texnologik mashinalarni detallarini ishlash shart-sharoitlarini hisobga olgan holda samarali foydalanishni *bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko‘nikma)*

-Yigiruv, tikuv, to‘quv korxonalaridagi mashina va jihozlar bilan yaqindan tanishib, ularning ish prinsiplarini o‘rganib, tajribada jarayonlarini amalga oshirish *ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak; (malaka)*

4.

VI. Ta'lif texnologiyalari va metodlari

- ma'ruzalar;
- intenfaol keys-stadilar;
- seminar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruxlarda ishslash;
- taqdimotlar qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishslash va himoya qilish uchun loyihalar;
- virtual reallik;
- gamifikatsiya;
- mobil platforma;
- courseslab;
- java script;
- autoplay.

5.

VII. Kreditni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushoxada yuritish va joriy va oraliq shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish

6.

Asosiy adabiyotlar

1. S.X.Babadjanov, S.S.Xodjayev. «Korxona servisi texnika va texnologiyasi - T.: «Fan va texnologiya», 2014. -301 b.
2. Q.Olimov, R.X.Nurboev, G.K.Soatova, I.M.Raxmonov. Tikuvchilik buyumlarini ishlab chiqarish jihozlari, Darslik.-T.: "Fan", 2011 y.- 308 bet.
3. Q.J.Jumaniyozov, Q.G'.G'ofurov, S.L.Matismailov. To'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi va jihozlari. Darslik. Darslik. -T.: G'.G'ulom, 2012. - 297

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Olimboyev E.Sh. To'quvchilik texnologiyasi va to'quv stanoklari. Toshkent. "O'qituvchi", 1987 y.
2. Marasulov Sh.R. Paxta va ximiyaviy tolalarni yigirish. 1 va 2 qismlar. Toshkent. 1985.
3. Q.T.Olimov, R.X Nurboyev, L.'Uzoqova, D.X.Bafoyev. Yengil sanoat jihozlarini ta'mirlash va tiklash asoslari. O'quv qo'llanma- T.: «Akademiya». 2005y.-176 b.

Axborot manbalari

1. www.lex.uz;
2. www.textile.referat.ru;
3. www.altavista.com/textile.htm;
4. www.cottonginning.com/textile.htm;
5. www.textile.com.
6. www.uzts.uz

7. Fanning o'quv dasturi Namangan to'qimachilik sanoati instituti Kengashining 2023-yil "30.08" "1" sonli bayonnomasi bilan maqullangan.

8. Fan/modul uchun mas'ul:

O.Mamatqulov - NamTSI, "Sanoat muhandisligi" kafedrasi mudiri, dotsent

9. Taqrizchilar:

Sh.Usmonov - NamTSI, «Sanoat muhandisligi» kafedrasi dotsenti, texnika fanlari nomzodi.

A.Mirzaumidov - NamMTI, "Texnologik mashina va jihozlar" kafedrasi dotsenti, PhD